

LEKSIK SATHDA TRANSFORMATSIYA MASALASI



Qarshi davlat universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

Ergashev Sardor Kosimovich

sardorergashev@gmail.com

Annotatsiya: Transformatsiya hodisasining leksik sathda yuz berishi va bu hodisaning xarakterli qirralari haqida to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, tillararo leksik birliliklarning o'zlashtirish jarayonidagi transformalarning o'ziga xos belgilari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Transformatsiya, ekvivalentlik, lingvistik aloqa, sintaktik tuzilish.

Аннотация: Рассказывается о том, что явление трансформации происходит на лексическом уровне и о характерных гранях этого явления. Также речь идет об особенностях трансформаций в процессе усвоения межъязыковых лексических единиц.

Ключевые слова: Трансформация, эквивалентность, лингвистическая связь, синтаксическая структура.

KIRISH: Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilga kirib kelayotgan o'zlashmalar va ularni o'zbek tilida ham asl mazmunini saqlagan holda ifodalashdir. Bunda transformatsiya hodisasining o'rni beqiyos hisoblanadi. Ma'lumki, transformatsiya nafaqat tilshunoslikda, balki yana bir qator fanlar tomonidan o'rganiladigan murakkab obyekt bo'lib, har bir fanning bu atamaga bergen ta'rifi ham turlich. Hattoki, tilshunoslik fanining o'zida ham transformatsiyaning chegaralari aniq belgilanmagan. Hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar va oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo'lmoqda.



Darhaqiqat, tilshunoslikda mavjud bo'lgan har bir nazariya, avvalo, tilni qanday tushunishga asoslanadi. Shunday ekan, leksik sathdagi transformatsiya hodisasining tilni tushunishda va tilshunoslikda yangicha qarash hamda nazariyalarni yaratishda ahamiyati katta.

ASOSIY QISM: Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik transformatsiyalar keng qo'llaniladi. Bu hodisa tilda murakkab ko'rinishlarni aks ettirishi sababli, leksik transformatsiya hodisasini aniqlash kuzatuvchidan katta e'tiborni talab qiladi. Transformatsiya hodisasi ko'pincha boshqa hodisalar bilan qo'shilib ketganligi tufayli, ularni har doim ham aniq tasniflash qiyinchilik tug'diradi. Hammamizga ma'lumki, leksika tilimizda jamlangan so'zlar majmuini tashkil etuvchi atamadir. Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, transformatsiya bir til so'zlarini boshqa til so'zlariga tarjima qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. L.S. Barxudarov transformatsiya atamasini ikki til yoki nutq birligi o'rtasidagi muayyan munosabat sifatida tushunadi. Bunda birlamchi birlik asosida ikkinchisi yaratiladi. "Tarjima transformatsiyalari atamasi esa ikki tilning rasmiy va ma'noviy tizimlaridagi farqlarga qaramasdan, tarjima ekvivalentligiga (tarjima mosligiga) erishish uchun amalga oshiriladigan ko'p sonli va turli-tuman tillararo o'zgartirishlarni anglatadi" [1]. Turli nutqiy vaziyatlar, ijtimoiy-aloqa sharoitlari, so'zlovchi (yozuvchi) ning ko'zlagan asosiy maqsadiga muvofiq farqli nutq ko'rinishlari yuzaga keladi, ular nutqiy uslublar sifatida o'ziga xosliklarga ega bo'ladi. Tilning rang-barang zaxirasidan tegishli til birliklarini tanlash va ularni uslub talablariga mos ravishda qo'llashning ham qat'iy qoidalari mavjud. Ularni, ya'ni uslubiyat qonuniyatlarini yetarli darajada bilmasdan turib, nutqning aniqligi, ta'sirchanligi va rasoligiga erishib bo'lmaydi. Shu jihatdan olib qaraladigan bo'lsa, turli leksik almashinishlar tilda ko'plab uchraydi. "O'zlashish - bu lingvistik aloqalar natijasida bir tildan ikkinchisiga o'tkazilgan chet tilining elementi (so'z, morfema, sintaktik tuzilish va boshqalar), shuningdek, bitta til elementlarining boshqa tilga o'tish jarayonidir" [1]. Bilamizki, leksikologiya so'zlarning ma'nolari, ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik, shakldoshlik, zid



ma'nolilik, iboralarni tarkibiy tuzilishi, bu shakllarning o'ziga xosliklari haqida ma'lumot beradi.

Umuman olganda, leksik transformatsiyalarning asosiy turlari bir nechtani tashkil etib, ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Aniqlashtirish - bu asl tildagi keng ma'noli so'z yoki so'z birikmasini tarjima tilidagi torroq ma'noli so'z yoki so'z birikmasi bilan almashtirish jarayonidir. Odatda, o'zbek tili leksikasi arab tili fors tili birliklariga nisbatan aniqroq bo'ladi. Bu haqiqat Alisher Navoiy bobomiz tomonidan "Mahokamat-ul lug'atayn" asarida quyidagilar ta'kidlangan. "Turkiy va sort lug'ati kayfiyati va haqiqati sharhida bu risolani jam' qilib bitidim va anga "Muhokamat ul-lug'atayn" ot qo'ydum, to turk eli tili fasohatu diqqati va balog'atu vus'ati... zohir qildim. Va xayolimg'a mundoq kelurkim, turk ulusi fasihlariga ulug' haq sobit qildimki, o'z alfoz va iboratlari haqiqati va o'z til va lug'atlari kayfiyatidin voqif bo'ldilar". (MAT, 20 tomlik, 16-tom, 40-bet). [3] Jumladan, ko'k so'zining osmon, kuy so'zining , kuylamoq, sabza so'zining- o't-o'lan ma'nolaridagi transformalarini keltirib o'tadi.

Tushirish hodisasi. Nutqda so'zlovchi o'z nutqini tinglovchiga yetkazishda tushirib qoldirish usulidan foydalanadi. Bu holat asosan semantik jihatdan ortiqcha bo'lgan so'zlar ularning semantik mazmuni nuqtai nazaridan tushirib qoldiriladi. Masalan: Sizni bayram bilan tabriklayman. Tug'ilgan kun muborak bo'lsin kabi birliklarni nutqda quyidagi transformalaridan foydalanamiz. Sizni bayram bilan tabriklayman. (transformasi) Bayram bilan. Tug'ilgan kun muborak bo'lsin. (transformasi) Tug'ilgan kun bilan.

O'rnini to'ldirish. Hozirgi o'zbek adabiy tilida transformatsion o'rnini to'ldirish hodisasidan keng foydalilanadi. Bunda ma'lum jumla yoki so'zni aynan o'sha ma'lumotni uzatadigan boshqa biror vosita bilan almashtirishni hisoblash kerak, bunda matnning asl nusxasi bilan bir xil joyda bo'lishi shart emas. O'rni to'ldirish, ayniqsa, asl nusxaning u yoki bu lingvistik xususiyatlarini tavsiflovchi lingvistik ma'nolarni - dialektal bo'yoq, nutqning noto'g'riliqi yoki individual xususiyatlarini, so'z o'yinini va boshqalarni, shuning uchun ham, har doim ham



qiyosiy birliklar orasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita muvofiqlikni topish mumkin bo‘lmagan hollar uchrashi mumkin. Bunday hollarda tilning ichki imkoniyatidan foydalanish zarur bo‘ladi.

XULOSA. Bugungi kunda tilimizda, ayniqsa tarjima sohasida, leksik transformatsiya faol qo‘llanilmoqda. Tillararo munosabatlarda transformatsiyaning o‘rni beqiyos bo‘lib, undan doimiy foydalanish talab etiladi. Bu o‘zgarishlar ma’no rivojlanishining bir ko‘rinishi hisoblanadi. O‘zlashtirishdagi bunday almashinuvlarni alohida so‘zning, ba’zan esa butun gapning o‘zgarishi deb ta’riflash mumkin. Bunda o‘zgartirish ayrim elementlar bo‘yicha emas, balki yaxlit tarzda sodir bo‘ladi. Shunday qilib, leksik transformatsiyalardan foydalanish, avvalo, asl mazmunni yetkazish va asl fikrni ifodalash bilan belgilanadi. Transformatsiyalar til me’yorlarini boshqa tillarga yaqinlashtirish vositasi sifatida qabul qilingan va hozirgi kunda ham faol qo‘llanib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М., 2005.
2. Чэнь Юйпин. Иноязычные заимствования в современном русском языке // Вестник Новосибирского государственного педагогического университета. – 2015. – №. 4. – С. 86-93.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-muhokamat-ul-lugatayn-haqida.html>